

## DAVLATNING INSON HUQUQLARINI TA'MINLASHDAGI MAJBURIYATI VA KONSTITUTSIYANING INSON MANFAATLARI UCHUN XIZMAT QILISHI

Yozilov Dilshodbek Bahriddin o'g'li

Toshkent davlat yuridik universiteti Jinoiy odil sudlov fakulteti

1-bosqich B patok 2-guruh talabasi.

[ydilshodbek2908@gmail.com](mailto:ydilshodbek2908@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15675919>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada davlatning inson huquqlarini ta'minlashdagi asosiy majburiyatlari va Konstitutsiyaning inson manfaatlariga xizmat qilishdagi ahamiyati yoritilgan.

*Tadqiqotda konstitutsiyaviy tamoyillar, xalqaro majburiyatlar va davlatning ichki siyosatidagi inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari tahlil qilinadi. Konstitutsiya inson manfaatlarini kafolatlovchi asosiy hujjat ekanligi, uning hayotga tatbiq etilishi jarayonlari misollar orqali yoritiladi. Shuningdek, sud tizimi va huquqiy davlat tamoyillarining inson huquqlarini ta'minlashdagi o'rni ham tahlil qilingan.*

**Kalit so'zlar:** Inson huquqlari, Konstitutsiya, huquqiy davlat, sud tizimi, davlat siyosati, jamiyat, fuqaro, huquqiy munosabat, xalqaro shartnoma, davlat siyosati, konstitutsiyaviy islohotlar.

### Kirish:

Inson huquqlarini himoya qilish zamonaviy davlatning eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Davlat siyosati inson manfaatlariga xizmat qilishi uchun Konstitutsiyaning asosiy tamoyillari real hayotda aks etishi zarur. Bugungi kunda davlat va jamiyat rivojlanishida huquqiy asos sifatida Konstitutsiyaning roli beqiyosdir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson huquqlarining daxlsizligini ta'minlash uchun muhim hujjat sifatida maydonga chiqadi. Ushbu maqolada davlatning inson huquqlarini ta'minlashdagi majburiyatlari va Konstitutsiyaning inson manfaatlariga xizmat qilishi holati ko'rib chiqiladi.

### Davlatning inson huquqlarini ta'minlashdagi majburiyatlari:

**1. Konstitutsiyaviy asoslar:** O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi davlat va fuqarolar o'rtasidagi huquqiy munosabatlarni tartibga soladi. Uning asosiy tamoyillaridan biri inson va fuqarolarning huquq va erkinliklarini ta'minlashdir. 13-moddada inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmati va boshqa ajralmas huquqlari oliy qadriyat hisoblanishi belgilab qo'yilgan<sup>1</sup>.

Bu esa mamlakatda demokratiya umuminsoniy prinsiplarga soslanishining yaqqol namunasidir. 19-moddada esa O'zbekiston Respublikasida insonning huquq va erkinliklari xalqaro huquqning umume'tirof etilgan normalariga binoan hamda ushbu Konstitutsiyaga muvofiq e'tirof etiladi va kafolatlanadi deb e'tirof etilgan.<sup>2</sup> Ushbu ikki modda misolida inson huquqlarini ta'minlash davlatning muhim vazifasi ekanini anglab olishimiz mumkin. Bunday normalarga yana bir qancha misollar keltirishimiz mumkin va ularning barchasi albatta inson foydasiga xizmat qiladi.

**2. Xalqaro majburiyatlar:** O'zbekiston Respublikasi inson huquqlariga oid 70 dan ortiq xalqaro shartnomalarning ishtirokchisidir. Masalan, 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1966-yildagi Fuqarolik va siyosiy huquqlar pakti, shuningdek,

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 13-moddasi

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 19-moddasi

Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar pakti davlat tomonidan ratifikatsiya qilingan. Ushbu xalqaro hujjatlar O'zbekistonning inson huquqlarini ta'minlash borasidagi sa'y-harakatlariga asos bo'lib xizmat qiladi.

**3. Davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari:** Davlatning asosiy vazifasi fuqarolarning xavfsizligini ta'minlash va ijtimoiy himoya tizimlarini rivojlantirishdir. O'zbekistonda qabul qilingan 2024-yilgi "Aholini ijtimoiy himoya qilish to'g'risida"gi qonun jamiyatdagi zaif qatlamlarning huquqlarini himoya qilishga qaratilgan. Bundan tashqari, davlat tomonidan amalga oshirilayotgan konstitutsiyaviy islohotlar ham inson huquqlarining kafolatlarini mustahkamlashni maqsad qilgan.

#### **Konstitutsiyaning inson manfaatlariga xizmat qilishi:**

Inson huquqlari – konstitutsiyaning muhim tarkibiy qismidir. Konstitutsiyaga muvofiq inson va davlat munosabatlarida ustuvorlik shaxsga beriladi. Konstitutsiya qoidalarini tahlil etib, undan inson huquqlari mazmun va mohiyatini belgilab beruvchi quyidagi muhim xususiyatlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Avvalombor inson huquqlari va erkinliklarini tan olish va himoya qilish davlatning alohida majburiyati ekanligiga urg'u berib o'tish lozim. Ikkinchidan, Asosiy qonunda o'z tasdig'ini topgan inson huquqlari va erkinliklari ro'yxati asosiy xalqaro-huquqiy hujjatlar qoidlariga muvofiq keladi. Ushbu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, inson huquqlari sohasida milliy qonunchilikka nisbatan xalqaro huquq normalarining ustuvorligi belgilab qo'yilgan. Uchinchidan, Konstitutsiya qoidalarida tabiiy huquq nazariyasi o'z ifodasini topdi.

Har bir inson tug'ilganidan muayyan huquqlarga ega bo'lishi qoidasi mustahkamlab qo'yildi. To'rtinchidan, barchaning qonun oldida tengligi va eng muhimi Konstitutsiyada fuqarolarning kafolatlangan sud himoyasiga ega bo'lishlari qoidasi o'z tasdig'ini topdi.

Beshinchidan, inson huquqlari va erkinliklarini amalga oshirish boshqa shaxslarning huquqlariga daxl qilmasligi qoidasi mustahkamlab qo'yildi.<sup>3</sup>

#### **1. Huquqiy kafolatlar tizimi**

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi inson manfaatlarini davlat siyosatining markaziga qo'yadi. 24-moddada har bir shaxsning yashash huquqi daxlsiz ekanligi belgilangan. 27-moddada esa har bir insonning sha'ni, qadr-qimmatini va shaxsiy hayoti himoya qilinishi ta'kidlangan. Ushbu huquqlar davlatning barcha organlari faoliyatida ustuvor ahamiyatga ega.

#### **2. Sud tizimi va qonun ustuvorligi**

Davlatning inson manfaatlariga xizmat qilishida sud tizimining mustaqilligi muhim ahamiyat kasb etadi. Sudlarning mustaqilligi fuqarolarning huquqlarini himoya qilishga asos bo'ladi. Misol uchun, 2024-yil avgust oyida Navoiy shahar sudida ko'rilgan jinoyat ishlari natijalarida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlari samarali himoya qilinganligi kuzatilgan.

#### **3. Fuqarolarni huquqiy xabardor qilish**

Davlatning inson manfaatlariga xizmat qilishi uchun fuqarolar o'z huquq va majburiyatlarini bilishi zarur. O'zbekistonda huquqiy savodxonlikni oshirish bo'yicha qabul qilingan dasturlar fuqarolarni Konstitutsiya va boshqa huquqiy hujjatlarning mazmun-mohiyati bilan tanishtirishga qaratilgan.

#### **Inson huquqlarini ta'minlashdagi islohotlar va ularning ahamiyati:**

<sup>3</sup> Саидов А., Тожионов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: икки жилдли. 2-жилд. Ҳуқуқ назарияси – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2001. – 447-бет.

### **1. Siyosiy islohotlar:**

2023-yil dekabrda O‘zbekiston Konstitutsiyasiga kiritilgan o‘zgartirishlar inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarini kuchaytirdi. Masalan, sud tizimi faoliyatini liberallashtirish va ayblanuvchilar huquqlarini mustahkamlash bo‘yicha qabul qilingan qarorlar xalqaro hamjamiyat tomonidan ijobiy baholandi.

### **2. Huquqiy islohotlar:**

Konstitutsiyaviy islohotlar natijadorligini ta‘minlash va xalqchil islohotlarni davom ettirish maqsadida davlatimiz rahbari tashabbusi bilan quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilab berildi:

birinchidan, “shaxs – jamiyat – davlat” paradigmasini konstitutsiyaviy qonunchilik va konstitutsiyaviy amaliyotda mustahkamlash;

ikkinchidan, iqtisodiy islohotlar jarayonida shaxs manfaatlarini samarali ta‘minlash hamda uning talab va ehtiyojlaridan kelib chiqish;

uchinchidan, fuqarolik jamiyati institutlarining roli va mavqeini konstitutsiyaviy asosda belgilash;

to‘rtinchidan, oila, onalik va bolalik institutini rivojlantirish, millatlararo totuvlikni mustahkamlashning konstitutsiyaviy asoslarini belgilash;

beshinchidan, Konstitutsiyada yoshlarga oid davlat siyosatini ustuvor yo‘nalish sifatida kiritish;

oltinchidan, bugungi kunda O‘zbekiston ijtimoiy davlat va adolatli jamiyat qurish yo‘lidan dadil ketayotganini hisobga olib, “Yangi O‘zbekiston – ijtimoiy davlat” tamoyilini konstitutsiyaviy norma sifatida belgilash;

yettinchidan, inson huquqlarini himoya qilishning amaldagi tizimi samaradorligini oshirish, bolalar mehnatining oldini olish, nogironlar, keksa avlod vakillari huquqlarini ishonchli himoya qilish;

sakkizinchidan, Konstitutsiyaga maxsus ekologik bo‘lim, global iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq huquqiy normalarni kiritish;

to‘qqizinchidan, asosiy qadriyat sifatida inson kapitalini rivojlantirishni konstitutsiyaviy darajaga ko‘tarish.

### **Xulosa**

Davlatning inson huquqlarini ta‘minlashdagi majburiyati konstitutsiyaviy asosga ega bo‘lib, bu jarayonning samaradorligi huquqiy tizimning amalda ishlashiga bog‘liq. Konstitutsiya inson manfaatlarini himoya qilish uchun kuchli huquqiy asos bo‘lsa-da, uning hayotda tatbiq etilishi davlat siyosati, sud tizimi va xalqaro huquqiy majburiyatlarga rioya qilish bilan chambarchas bog‘liqdir. Shuning uchun davlatning bu boradagi harakatlari muntazam ravishda rivojlantirilib, inson huquqlarini ta‘minlashda innovatsion yondashuvlar qo‘llanilishi lozim.

Inson o‘z huquqlari himoyasi ta‘minlangan jamiyatdao‘zini erkin his qiladi. Erkin inson esa maqsad sari, jamiyat rivojiga hissa qo‘shish sari kuch bilan, ishonch bilan olg‘a intiladi.

### **REFERENCES**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, 1992 yil.
2. BMT Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, 1948 yil.
3. Fuqarolik va siyosiy huquqlar pakti, 1966 yil.
4. O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy himoya to‘g‘risidagi qonunlari, 2024 yil.

5. "Inson huquqlari bo'yicha xalqaro normalar va milliy qonunchilik" to'plami, Toshkent, 2023 yil.
6. Саидов А., Тожионов У. Давлат ва ҳуқуқ назарияси: икки жилдли. 2-жилд. Ҳуқуқ назарияси – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ академияси, 2001. – 447-бет.